



METHODS AND APPROACHES TO COMBATING ILLICIT TRAFFICKING OF NARCOTIC DRUGS IN CUSTOMS AUTHORITIES

Shukurov Shermuhammad Shodmonovich

Master's student at the Customs Institute
of the Republic of Uzbekistan

Article history:	Abstract:
Received: 26 th February 2026 Accepted: 24 th March 2026	This article examines drug addiction as a factor posing a serious threat to human development, social stability, and the national gene pool. The negative impact of narcotic substances on the human body - particularly on the brain, cardiovascular system, and mental health - is scientifically analyzed. Furthermore, the state policy of the Republic of Uzbekistan in combating drug abuse and drug-related crime is reviewed, including the content of the national strategy for 2024-2028 and presidential decrees. Based on statistical data, the relevance and urgency of this issue are substantiated. In conclusion, the importance of youth education, the formation of spiritual immunity, and the responsibility of all segments of society are emphasized.

Keywords: drug addiction, drug-related crime, psychotropic substances, national gene pool, youth education, spiritual immunity, public policy, prevention, crime, healthcare

BOJXONA ORGANLARIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARINING NOQONUNIY AYLANISHIGA QARSHI KURASHISH METODIKASI VA USULLARI

Shukurov Shermuhammad Shodmonovich

O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti
magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada giyohvandlik illati insoniyat taraqqiyoti, jamiyat barqarorligi va milliy genofondga jiddiy tahdid soluvchi omil sifatida tahlil qilingan. Giyohvand moddalarning inson organizmiga, ayniqsa, miya, yurak-qon tomir tizimi va ruhiyatiga salbiy ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda giyohvandlik va narkojinoyatchilikka qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati, xususan, 2024-2028 yillarga mo'ljallangan milliy strategiya va Prezident farmonlari mazmuni tahlil qilingan. Statistik ma'lumotlar asosida mazkur muammoning dolzarbligi asoslab berilgan. Xulosa sifatida yoshlar tarbiyasi, ma'naviy immunitetni shakllantirish va jamiyatning barcha qatlamlari mas'uliyati muhim ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, narkojinoyatchilik, psixotrop moddalar, milliy genofond, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy immunitet, davlat siyosati, profilaktika, jinoyatchilik, sog'liqni saqlash.

МЕТОДИКА И СПОСОБЫ БОРЬБЫ С НЕЗАКОННЫМ ОБОРОТОМ НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ТАМОЖЕННЫХ ОРГАНАХ

Шукуров Шермухаммад Шодмонович

магистрант Таможенного института
Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье наркомания рассматривается как фактор, представляющий серьёзную угрозу развитию человечества, стабильности общества и национальному генофонду. Научно освещается негативное воздействие наркотических веществ на организм человека, в частности на мозг, сердечно-сосудистую систему и психику. Также проанализирована государственная политика Республики Узбекистан в сфере противодействия наркомании и наркопреступности, в частности содержание национальной стратегии на 2024–2028 годы и указов



Президента. На основе статистических данных обоснована актуальность данной проблемы. В заключение подчёркивается важность воспитания молодёжи, формирования духовного иммунитета и ответственности всех слоёв общества.

Ключевые слова: наркомания, наркопреступность, психотропные вещества, национальный генофонд, воспитание молодёжи, духовный иммунитет, государственная политика, профилактика, преступность, здравоохранение

Insoniyat tarixi necha ming yillik taraqqiyoti davomida ilmiy izlanishlari va amaliy faol faoliyati tufayli barcha sohalar kabi madaniyat va ma'rifatda ham yuksak natijalarga erishdi. Biroq shunday bir illat borki, u ilmni ham, ma'rifatni ham, umuman olganda, barcha insoniy qadriyatlarni bir zumda vayron qilib yuboradi. Bu - giyohvandlik illati. Uning zarari butun oila, jamiyat, millat va insoniyat hayotini tahlika ostida qo'yishi mumkin.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, giyohvand moddalar, eng avvalo, inson miyasini buzadi: avvaliga "baxt gormoni" deb atalgan dofaminni sun'iy ko'paytirib, yuzaki lazzat hissini beradi. Bir necha daqiqalik "farog'at" tuyg'usidan keyin esa, azobli zanjir qismi boshlanadi: yurak va qon tomir tizimi buzilishi natijasida qon bosimi keskin o'zgarib, tomirlar tortiladi, yurak "charchab" ishdan chiqadi, jigar va buyrak faoliyatini susaytiradi, immun tizimini zaiflashtiradi, organizmning virus va bakteriyalarga qarshi kurashish qobiliyati pasayib, eng kichik infektsiya ham og'ir xastaliklarni keltirib chiqaradi.

Eng yomoni, giyohvandlik inson ruhini so'ndiradi, u oilaga mehr-muhabbatni, ota-onani, yaqin og'aynilarni, hayot mazmunini his etmay qo'yadi. Ana shu ruhiy qaramlik uni jinoyatga yetaklaydi: pul uchun na o'g'irlikdan, na firibgarlikdan, na xiyonatdan - hech narsadan tap tortmaydi. Ushbu illatning oldini olish uchun yurtboshimiz boshchiligida mazkur illatga qarshi kurashish chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 3-noyabr kuni millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish yo'nalishida o'tkazilgan yig'ilishda ta'kidlanganidek "Afsuski, mazkur illat mamlakatimizni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Yil boshidan 11 mingdan ziyod narkojinoyat aniqlanib, 2,5 tonnaga yaqin giyohvand moddalar ushlab qolindi. Bunday jinoyatlarning shakl va turlari yildan yilga ko'payib, qamrovi ortib borayotgani narkojinoyat va giyohvandlikka qarshi kurashishni kompleks ravishda tashkil qilish kechiktirib bo'lmaydigan vazifa ekanini ko'rsatmoqda"¹.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil

3-noyabrdagi PF-207-sonli farmoni O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024 - 2028 yillarga mo'ljallangan

milliy strategiyaning ustuvor maqsadlariga erishish, giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash maqsadida qabul qilindi.

Ushbu farmonga asosan quyidagilar asosiy maqsad va vazifalar etib belgilandi:

- O'zbekiston aholisining salomatligi va millat genofondiga jiddiy tahdid solayotgan giyohvandlik illatiga qarshi kurashish hamda bunga sabab bo'layotgan uyushgan narkojinoyatchilikka chek qo'yishga qaratilgan normativ-huquqiy, tezkor-profilaktik va tashkiliy-tarbiyaviy choralar kompleksini belgilash;

- giyohvandlik vositalarini respublika chegarasidan olib kirish yo'nalishlarini, internet tarmoqlari orqali tarqatish harakatlarini, noqonuniy narkolaboratoriyalarni va narkojinoyat uyushmalarini, shu jumladan, ularga homiylik (rahnamolik) qilayotgan mansabdor shaxslarni aniqlash, ular faoliyatiga chek qo'yish hamda jazo muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli tezkor-qidiruv va tergov faoliyatini yo'lga qo'yish².

Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2026-yil 16-fevraldagi PF-22 sonli "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va «O'zbekiston - 2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan. Ushbu farmonning 5-ilovasi "Davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish, jamiyatda birdamlikni ta'minlash orqali uni yuksaltirish bo'yicha ustuvor islohotlar dasturi" deb nomlanib quyidagilar belgilangan:

- Giyohvandlik va narkojinoyatlarga, prekursorlarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish;

- "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririni ishlab chiqib, qabul qilinishini ta'minlash;

- Narkotiklar, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar va prekursorlarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishdagi yangi mexanizmlarini ishlab chiqish;

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/8617>

² <https://lex.uz/docs/7818774>



- Giyohvandlikka, narkojinoyatlarga va prekursorlarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari mas'uliyatini belgilash³. Ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida bojxona organlari, xususan bojxona instituti o'z oldiga quyidagi vazifalarni belgilab olgan.

- giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog'liq jinoyatlarning tavsifini o'rganish;

- "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonun o'rganib, qo'shimcha va o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflar berish;

- narkotiklar, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar va prekursorlarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishdagi yangi mexanizmlar takomillashtirish;

- giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish faoliyatining hozirgi zamon holatini tahlil qilish;

- giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasidagi xorijiy davlatlar tajribasini o'rganib, tadqiq etish;

- statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2025 yilda respublikada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq:

- 15 412 ta jinoyat aniqlangan;

- 3 tonna 775 kg giyohvand modda musodara qilingan;

- 15 ta narkolaboratoriya fosh etilgan⁴.

Shuningdek birgina bojxona organlari tomonidan boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda 2025-yilda davomida 657 ta holatda 1 tonna 854 kg giyohvandlik vositalari, 106 ta holatda 28,5 kg psixotrop moddalar, 241 ta holatda 1 tonna 82 kg kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, 6 ta holatda 40 litr prekursorlar aniqlandi.

Aniqlangan giyohvandlik vositalarining 1 tonna 225 kg gashish, 386 kg opiy, 71 kg mariyuana, 53 kg mefedron, 115 kg boshqa sintetik narkotiklar (a-PVP, MDMA va boshqalar), 3 kg heroin, 1 kg ko'knori xashagi tashkil qilgan.

Holatlarning 776 tasi ichki hudud, 471 tasi chegara, 12 tasi tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida aniqlangan.

2024-yilda JKning 270, 271, 273-276-moddalariga daxldor jinoyatlar sodir etganlikda ayblanib, 8 373 kishi sudlangan. Tahlillarga qaraganda, 2020-yilda ushbu turdagi jinoyatga qo'l urganlar 3 941 nafar, 2021-yilda 4 182 nafar, 2022-yilda 5 825 nafar bo'lgan. 2023-yilda bunday qilmishni sodir etganlar soni yanada oshib, 6 204 nafarga yetgan. O'tgan yili esa bunday jinoyat ko'chasiga kirganlar 2169 nafarga yoki 35 foizga ko'paygan.

Hududlar kesimida giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarning eng ko'p ulushi Toshkent shahrida qayd etib kelinmoqda. Jumladan, poytaxtda 2022-yilda 1218 shaxs, 2023-yilda 1309 shaxs, 2024-yilda 1999 shaxs mazkur jinoyatni sodir etgan. Shu bilan birga, o'tgan yili Farg'ona (1410 nafar) va Toshkent (1219 nafar) viloyatlarida ushbu turdagi qonunga xilof harakatga qo'l urganlar soni nisbatan ko'p bo'lgan. Hisobotga ko'ra, 2024-yili O'zbekistondagi sudlarda 61 481 ta jinoiy ish ko'rib chiqildi, oxirgi besh yillikdagi eng ko'p - 77 995 kishi sudlandi. Ular sodir etgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi turlicha. Masalan, qariyb 22 951 kishi (29 foiz) og'ir, 4 144 kishi (5 foiz) o'ta og'ir jinoyat sodir etgan.

IIV ma'lumotlariga qaraganda, 2024 yil davomida Toshkentda aniqlangan holatlar yuzasidan 3 447 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilgan. Ushbu jinoyatlarning 2 413 tasi yoki 70 foizi internet tarmog'i bilan bog'liq holda sodir etilgan. Tadbirlar natijasida 238 kg 815 gramm giyohvandlik, psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari tegishli tartibda rasmiylashtirilib, noqonuniy muomalasiga chek qo'yildi⁵.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz".

Yuqoridagilardan kelib chiqib, «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonunga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim:

1. Qonunning 3-moddasi "Asosiy tushunchalar"ning 4-bandiga "*yangi psixoaktiv moddalar*" tushunchasi bilan to'ldirish;

- *yangi psixoaktiv moddalar* - kimyoviy tarkibi bo'yicha giyohvandlik vositalariga o'xshash bo'lgan, lekin rasmiy ro'yxatlarga kiritilmagan sintetik moddalar.

2. Qonunning 3-moddasi "Asosiy tushunchalar"ning 10-bandiga "*elektron retsept*" tushunchasi bilan to'ldirish - **elektron retsept** - tibbiy maqsadlarda beriladigan raqamli tibbiy hujjat.

Ushbu o'zgartirishlarni kiritishdan asosiy sabab, mazkur Qonun 1999-yilda qabul qilingan bo'lib, unda "yangi psixoaktiv moddalar", "elektron retsept" tushunchalari yo'q edi. Hozirgi kunda ushbu turdagi giyohvandlik

³ <https://lex.uz/pdfs/8050787>

⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/02/narkotik/>

⁵ <https://iibb.uz/oz/news/tokentda-solom-pohtaht>



vositalari ko'payganligi, raqamli texnologiyar rivojlanib, shifokorlar ko'rsatmasi elektron shaklda bo'lganligi bois o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonun.
2. 2025-yil 3-noyabrdagi PF-207 sonli "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
3. 2026-yil 16-fevraldagi PF-22 sonli "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish» yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va «O'zbekiston - 2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni.
4. <https://president.uz/uz/lists/view/8617>.
5. <https://lex.uz/pdfs/8050787>.
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/02/narkotik>.
7. <https://iibb.uz/oz/news/tokennda-solom-pojtaht>.